

O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATIDA YUMORNING AN‘ANAVIYLIGI  
VA TARAQQIYOTXUSUSIYATLARI

**Qobilova Aziza Ahrorovna**

*Buxoro davlat universitetining*

*mustaqil izlanuvchisi*

*Tel: 97- 301- 24- 84*

***Annotatsiya:** maqolada bolalar va o‘smirlar kitobxonligiga mos yumoristik she‘rlarda poetik obraz, badiiy detallar, kulgi uyg‘otadigan holat, so‘z va tushunchalarning makon va zamon, obyekt va subyektning yangilanishi bilan tafakkurdagi evrilishlarga mos ravishda tadrijiy taraqqiyotga egaligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** yumor, kulgi, hajv, satira, hazil, komiklik, masxara, komiks, psixologiya, latifa, mavzu, syujet, g‘oya, ramz, evolyutsiya, qofiya, taqlid so‘z*

Hozirgi o‘zbek bolalar she‘riyati turli davrning o‘ziga xosliklari jumladan, poetik obraz yaratish an‘analari, badiiy detal va vositalardan foydalanish, ijodkor uslubi va mahorati nuqtayi nazaridan tadrijiy rivojlanib kelmoqda. Bolalar idroki, tushunchasi, hissiy olami bir joyda qotib qolmasligi, rang-barang tamoyil kasb eta borishi shuni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, ularga bag‘ishlangan asarlarda qahramon xarakteri o‘zgarib boradi, mavzu va syujetdan tashqari, shakl va mazmun, g‘oya va fikrning ahamiyati muhimlik kasb etadi. Bolalar she‘riyatida yumorning o‘rni va badiiy-estetik vazifasi ham bundan mustasno emas, albatta. Kulgi kamida ikkita obyekt ishtirokida, ya‘ni kulgi bo‘luvchi va kuluvchi o‘rtasida sodir bo‘ladi. Shunga ko‘ra kulgi tashish vazifasini bajaruvchi obrazlar yumoristik, komik obraz, syujet voqeligidagi kulgili holatlar, qahramonlarning harakatlari va nutqidagi muayyan komik belgilar vositasida ifodalangan asar yumoristik asar nomi bilan yuritiladi.

Yumor umuman adabiyotda avvalo beozor kulgiga asoslansa ham uning turli davrlardagi ijtimoiy, adabiy-estetik vazifalari rang-barang kechgan deyish mumkin. Aytaylik, o‘tgan asrning 30-yillarida kichik maktab yoshidagi bolalar xarakterida uchrab turadigan kamchiliklarni fosh etish, ularning gigiyenaga rioya qilmay kirchir yurishi, tishlarini o‘z vaqtida davolatmasligi (G‘.G‘ulomning “Nortojining kurak tishi”. “Ahmad yomon bola emasku, ammo...”). yoki maktabda fanlardan past o‘zlashtiruvchi 8-11 yoshdagi o‘quvchilarning psixologik obrazi (S.Jo‘raning “Cho‘ntak”, “Mamatning kechirmishlari”, “Yolg‘onchi”, “Qarzdor”, Q.Muhammadiyning “Dum” kabi she‘rlari) namoyon bo‘ladi.

Yangi asr, yangicha tafakkurlash esa jamiyatning yumorga munosabatini ham o‘zgartirib boradi, albatta. “Yumor bilan insonlar g‘azabli ravishda masxara qilinmaydi, ular ruhan o‘ldiradigan kulgiga duchor bo‘lmaydilar. Jiddiy salbiy xarakterga ega bo‘lmagan, jinoiy ishlarga yo‘l qo‘ymagan shaxslarni fosh qiladigan, tuzalishi oson bo‘lgan, chuqur ildiz otib ketmagan nuqsonlarni yo‘qotishga qaratilgan kulgi yumordir”,– deb ta‘kidlanadi manbalarda” [1:312].

Aytish mumkinki, bolalar she'riyatida yumor obykti, mavzusi yanada kengaydi. Jamiyatdagi ko'pgina illatlar – chaqimchilik, g'iybatchilik, aldoqchilik, xiyonatkorlik, ochofatlik, dangasalik aslida kattalar orasida uchrasa ham bolalar tabiati yanglig' hajv qilinganligini kuzatish mumkin. R.Tolipovning “Bitta yomon”, “Har kim o'z aybin bilmas”, “Olifta”, Anvar Obidjonning “Qurumsoq”, “Tekin ziyofat”, “Ochofat”, “Hasadgo'y”, “Qizg'anchiq” kabi she'rlaridagi fosh etish usuli yumorni yuzaga keltiradi. T.Adashboyev, Q.O'tayev, A.Obidjon, H.Imomberdiyev, D.Rajabov, A.Akbar kabi shoirlarning yengil yumor bilan yo'g'rilgan she'rlarida salmoqli ijtimoiy mazmunni singdirish yetakchilik qila boshladi.

Shu bilan birga, bugungi yosh avlod tanqidni “hazm” qila olmasligi, aksincha samimiy, iliq munosabat, e'tibor va muhabbat xush yoqishi ayon haqiqat. Yumoristik talqinlarda ham yosh avlod g'ururini, sha'nini oyoqosti qilmaslik, ularning o'ziga bo'lgan yuksak ishonchini yo'qotmaslik, qolaversa, nozik qochirimlardan foydalanish, ruhiy olamini asrab-avaylash kabilar bunday she'rlar mazmunini boyitadi.

Z.Isomiddinning “Maqtanchoq” she'rida buni yaqqol ko'ramiz.

Bir o'zim ... ro'paramda  
Mudragan sher yotardi.  
Dadil borsam yoniga  
Qo'rqib boshin ko'tardi,  
Mendan kuchli dunyoda,  
Yo'q edi, shu nafasda  
So'ng birov kelib,  
Dedi:

nariroq tur qafasdan.

She'rda bolalarga xos qo'rqqoqlik va maqtanchoqlik bir qaraganda sezilmaydi, hatto lirik qahramon “dadilligi”dan o'zicha mag'rur, bir zum bo'lsa ham “eng kuchli”ligini his qilayapti, shu zavqni tuyadi. O'quvchi ham yuragini hovuchlab, butun diqqati bilan she'ning oxirgi misralarigacha qiziqib o'qiydi-da, “xayriyat-e” deb yuboradi. Nazarimizda, yumorning ko'proq kichkintoylar tabiatiga, olamiga mos va xosligi ham shunda. Zero, yumoristik she'rlarning vazifasi tomoshatalab bolalarni to'plab, nuqul kamchiliklar ustidan kulish, tengdoshlarini mazax qilish, kamsitishga o'rgatish emas, balki ulardagi jasorat va dadillikni his qilish zavqini ko'rsatish hamdir. Ya'ni, kulgi obykti bo'lib mayna qilinish, mazax bo'lishga odatlangan bolaning ruhiyatida kelajakda jamiyatga nisbatan nafrat paydo bo'ladi, odamlardan qochadi, tengdoshlari davrasida o'zini kamsitilgan his qiladi. Bu psixologik holat dastavval sinfda, oila davrasida, so'ngra, jamoada va jamiyatda

ildiz otib, illatga aylanishi mumkin. aytaylik, Shu sababli, yumor yosh qalblarni parchalashga emas, barq urib o‘ sib-ulg‘ayishga yo‘l ochishi lozim.

H.Imonberdiyev yumoristik she‘rlariga ijtimoiy hayotdagi muammolarni bolalar she‘rlariga “sezdirmay” olib kiradi. “O‘yin” she‘rida bolalar mashg‘uloti orqali jiddiy g‘oya ilgari surilgan:

Avvaliga xo‘p rosa,  
Qilolmayin murosa,  
Boshliqlikka talashdik,  
Bir urishdik, yarashdik.  
Oxir mushti zo‘r Omon  
Boshliq bo‘ldi katta-kon!

Haqiqatdan, o‘g‘il bolalar o‘z tengqurlari bilan o‘yin o‘ynaganda ular orasidagi gavdaliroq, kuchli va mushtum zo‘rrog‘i “onaboshi” yoxud “jo‘raboshi” etib saylanadi. Bu boshliq o‘yinni boshqarib, har xil g‘irromlik qilganlarni ta‘zirini berib, o‘yin qoidalarini buzmay o‘yinni tashkil qilib turadi. Omonning amaldorligini qolgan “xodimlar” darrov ta‘zim bilan qabul qiladilar. Faqat rahbarning tinchligini ko‘zlab, o‘rinbosar tanlashda yana yoqa talashadilar. Shunda:

Boshliq olaytirib ko‘zin:

–O‘rinbosar ham o‘zim!

Buyuraman tek turing,

Yana stul keltiring!,– deydi.

Alal-oqibat ikkita stulga ham yalpayib o‘tirgan boshliq, ta‘zirini yeydi: orqasi ikki stul orasiga qisilib, voy-voylab, “oyi” deb yig‘laydi. “Qo‘sh stulning chimchishi” tufayli o‘yin ham buziladi.

T.Adashboyev “80-yillarga kelib Anvar Obidjon bolalar she‘riyatidagi ob-havoni bir yo‘la yangiladi. Uning “kosa tagida nimkosa” asarlari tilga tushdi”, deb yozadi [2].

Chindan ham bolalarning yumoristik adibi, dramaturgi va shoiri A.Obidjon ijodida bu jihat akomillashganiga guvoh bo‘lamiz. Uning “G‘alati maktublar” turkumidagi she‘rlarida bugungi yosh avlod uchun arxaik, tarixiy hodisa va tushunchalarga aylanib ulgurgan, yoki zamonaviy narsa-hodisalarning bolalarbop atamalari, yangi so‘z yasash kabilar yumorni vujudga keltiradi. “Kalishning botinkaga”, “Chaynamayshimingning xo‘rozqandga”, “Qo‘raning qumg‘onga”, “Sopolkosaning chinnikosaga” “yozilgan xat”laridagi syujet shu ma‘noda e‘tiborga loyiq. Chorig‘ bobong, Shippak opang, Xirom akang, cho‘tir Kirza tog‘ang, Mahsibibi oying, Amirkoni xolang” singari bolalar tiliga xos bo‘lgan so‘z yasalmalari nafaqat she‘rni kichkintoylarga yaqinlashtiradi, balki aynan bola shu poyafzal turlarini o‘zining yaqin qarindoshlari sifatida tasavvur qilib, miriqib

kulishiga sabab bo‘ladi. Ammo uning mazmunida milliy qadriyatlar, masalan, “Chorig‘ingni unutm” degan maqoldagi kim ekanligingni, kelib chiqqishingni, otabobongni unutm degandek mazmun bo‘lsa, xirom etiklarni g‘irchillatib kiygan qirchillama yigitlar mardligi, jasorati, mahsibibi oying- oftob yuzli, purma‘no o‘gitlarga boy katta buvilarimizni eslashdek iforni his qilamiz.

Shu bilan birga shoirning qator she‘rlarida yumor yaratishning turli usul va vositalarini kuzatish mumkin.

**1. Bolalar folkloriga xos masxaralamalarning ijodiy stilizatsiyasi orqali:**

Farhod cho‘milar // Suvga ko‘milar.

Tilini chiqarib // Ermaklar Mirsharif:

“Farhod – paroxod // Farhod – paroxod...”

Ter to‘kib sharros // Suv tashir Parvoz.

Tilini chiqarib // Ermaklar Mirsharif:

«Parvoz – parovoz // Parvoz – parovoz...»

**2. Bolalar o‘yinlari va manzara yaratish orqali.**

„Kolxoz bog‘ida“ she‘rida bolalarning harbiy qo‘shinning hujum qilish manzarasi aks etgan. Faqat she‘r nihoyasidagi „Bog‘ni qo‘qqis bosamiz, Olma yeymiz rosa biz. Baqirishib, chinqirib. Kelib qolsa qarovul, Hushtak chalar Matqovul, Chekinamiz tirqirab“ jummalari bu bor yo‘g‘i kolxoz bog‘iga o‘g‘rilikka tushgan bolalarning o‘yini, bolalikdagi sho‘xliklari ekanligi anglashilib, katta-kichikkka tabassum ulashadi.

**3. Noo‘xshov holat tasviri asosida.**

Shoirning bu yo‘nalishdagi she‘rlaridan birida Botirvoy avvalgi qishda issiq va yumshoq jun paypoq bilan o‘rtoq tutingani, bu yil qishgacha esa “o‘rtog‘i”ni afsuski Sichqon yeb ketganidan nadomat chekib, marsiya yozganligi ayon bo‘ladi. She‘rda avvalo Botirvoyning junpaypoq bilan o‘rtoq tutinish kulgili holat bo‘lsa, endi o‘sha “o‘rtog‘i”ni sichqon yeb ketgani yanada kulgilidir. Shuningdek, “Parishonxotir” she‘rida Jamilning suvga cho‘milaman deb kiyimini yechishi-yu, o‘zini emas kiyimlarini suvga otishi hajv qilinadi.

**4. Sarlavha tanlash orqali.**

*Qumursqavoy*

*Topib uvoq,*

*Terga botib*

*Tortdi uzoq.*

*Chumchuq kelib*

*Sekingina,*

*Yutdi-qo‘ydi*

*Tekingina.*

Agar shu sheʼrning sarlavhasi “Tekinxoʻr” deb qoʻyilmasa, oddiy manzara sheʼr hisoblanadi. Ammo, tekinxoʻrlik nomaqbul illat, yomon odat boʻlgani uchun, chumchuqning qilmishi masxara qilingan. Shoirning juda koʻp sheʼrlari aynan sarlavhasi bilan teran mazmun, badiiy-estetik vazifa kasb etadi..

##### **5. Yumor hosil qiluvchi soʻz, atama va terminlar orqali.**

Shoirning “Hazilkash”, “Masxaraboz bola” sheʼrlarining sarlavhasi ayni paytda yumorning kalit soʻzlari hamdir. Ayniqsa masxarabozlar tashqi qiyofasi bilanoq kulgi uygʻotadi. Va uning vazifasi ham odamlarning beoʻxshov qiliqlari, odatlarini kuldirish orqali oʻzlariga anglatadi. Hatto kulishning turini ham koʻrsatib beradi:

Katta qizil burunli

Qiziqchiman, bilasiz.

Aybingizni gapirsam,

Xafa boʻlmay kulasiz,

Vax-xax-xa.

Gapirishdan iymangan

Olsin mening oʻrnimni.

Qarzga berib turaman

Katta qizil burnimni,

Vax-xax-xa.

##### **6. Hodisalarning asar syujetida teskari yuz berishi orqali yumor yaratish.**

Anvar Obidjonning yumoristik sheʼrlarining koʻpchiligida hayotdagi voqea-hodisalar teskarisiga roʻy beradi. Masalan shoirning “Xabar sotuvchi” sheʼrini oʻqish orqali bozor manzarasi koʻz oldimizga keladi. Ammo bu bozor hech qayerda boʻlmagan antiqa savdo-sotiqqa ega. Lirik qahramon aynan uddaburon savdogarlarga xos baqir-chaqir qilib: *“Yangi gaplar sotaman, Eski gaplar ham. Bolajonlar, kepqoling, Qoldi juda kam. Surishtirmang narxini, Shardan ham arzon. Xoʻrozqandga – rost xabar, Pishloqqa – yolgʻon. Almashaman yangisin Kepaksiz unga. Eski gapni – puch yongʻoq, Yoki sovunga...”* deya qiziqtiradi. Ana endi uning xabarlari ham juda antiqa, hayotdagi haqiqatga gʻirt teskari, yoki oʻta kulgili: *Buni tongda eshitdim, Eng yangi xabar: Yeb qoʻyganmish tushida*

*Burgutni Kaptar.* Xuddi shunday quyuvoy yoʻlbars terisini yopinib olishi, tulkinging Boʻriga xoʻroz keltirib berishi, eshakning ayiqni ustidan savodsiz deb kulishi, Tuyaning doktor arslonga qimmatbaho terimga kuya tushdi deb arz qilishi-yu, doktor uning terisini shilib olib, uzoq tekshirishi kabilar chindan ham kattayu-kichikning xoxolab kulishiga turtki boʻladi. Sheʼrning yumoristik xususiyatlarini taʼminlovchi talaygina badiiy-stilistik vositalardan tashqari kinoyaviy mazmun,

majoziy-allegorik obrazlar talqini zamondosh o‘quvchini mulohazaga yetaklaydi. Aynan bozor savdosi, yolg‘on gap sotish, aldov-qaldovlarning hayot haqiqatiga qay jihatdan o‘xshab ketishini tushunib yetadi. Har bir jonzot, odamzot ham o‘zidan kuchsizga zo‘ri yetadi. Aslida bu hayvonlarning yashash qonuniyati. Ammo afsuski insoniyatga to‘la to‘kis yuqib ulgurgan. Shunday ekan, shu hayot qonuniyatining teskarisi ro‘y berishini hamma birdek orzu qiladi. Xususan, bolajonlar tushida ham, o‘ngida ham shu haqda o‘ylaydi. Shoir kichkintoylardagi shu psixologik holatni teran ilg‘aganidan, bu xayolotni she‘rda reallashtiradi. Bolalardagi xursandchilik, kulgi zavqi shundan. Ular bunday “xabarlar”ni jon deb sotib olishga tayyor.

### **7. Lof vositasida yaratilgan yumoristik she‘rlar**

A.Obidjonning qator she‘rlari loflar asosiga qurilgan. Garchi bu loflar hayvonlar haqida bo‘lsa ham, yegulik oziq-ovqatlari odamlarga tegishli. Kulgining asosi ham shu. Agar shoir Karkidonning shunchaki yuz bog‘ beda, yoki yuz chelak suv ichganini lof qilsa, qiziqarli bo‘lmasligi mumkin, ammo “Ishtahangdan o‘rgildim” she‘rida lavoq Karkidon balchiq kechib lirik qahramon bilan oshxonaga kiradi. Ellik beshta non, olti qop bodring, qirq paqir sho‘rva, to‘qsonta tuxumni, yuz stakan kompot, yetmish tovoq go‘shlik osh yegani uchun unga tushlik yetmay qoladi.

Shunday qilib, hozirgi zamon bolalar she‘riyatida yumorning badiiy-estetik vazifalari maktab o‘quvchilari, kichkintoylarning nojo‘ya qiliqlari, fe‘l-atvoridagi kamchiliklarni fosh etish, masxara qilish emas, jamiyat tafakkuridagi, ijtimoiy taraqqiyotdagi yangilanishlar bilan bog‘liq dolzarb muammolarga ko‘proq e‘tibor berilishi, yosh avlod ruhiyatidagi evrilishlar, huquqiy ongining o‘sishi kabilar estetik tamoyilga aylanib, tadrijiy taraqqiyot tamoyilini yuzaga keltirganini ko‘rsatadi. Hozirgi davr o‘zbek bolalar she‘riyatida yumorning badiiy-estetik asosini tashkil etuvchi komiklik, ramziylik va badiiy vositalar yosh avlod ruhiyatida ulug‘vorlik, o‘ziga ishonch hamda intellektual jihatdan o‘tkir salohiyat, estetik did egalari qilib tarbiyalashga yo‘naltirilganligi bilan muhimdir.

#### ***Adabiyotlar ro‘yxati:***

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1979. II tom. – 312–313-b.
2. Adashboyev T. “Osmon nega zangori?” // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2008, 7-mart.
3. Axmedova Z. Yumor i satira v uzbekskoy detskoy poezii (60–70-x godov). Diss. kand. filol. nauk. – Tashkent, 1984. – S. 35.
4. Jo‘rayeva G. O‘zbek bolalar she‘riyatida hajviy obraz yaratish mahorati. – Toshkent: Muharrir, 2011. – B. 17.